

ZARAFSHON MILLIY TABIAT BOG'I QISHLOQ XO'JALIGI EKIN YERLARIDA O'RMONLAR TASHKIL ETISHNING BOG' FAUNA- FLORASIGA VA TABIIY GEOGRAFIK RESURSLARIGA IJOBIY TA'SIRI

E.B.Xolmanov - Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat Universiteti
«Geografiya va Ekologiya» yo'nalish 1-kurs Mustaqil izlanuvchi

Annotasiya: ushbu maqolada Zarafshon milliy tabiat bog'ida tabiiy va antropogen omillar tasirida sodir bo'layotgan geografik, ekologik muammolarini geografik asoslari tahlil qilinadi.

Kalit suzlar: O'zbekistonning Respublikasining METH, Milliy tabiat bog'i, bioxilma-xillik, quriqxon, ekotizm, Qizil kitob, tuqayzor, daryo suv satxi, Buxoroxonguli bugulari, yuvvoyiy tabiat fondi WWF, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

Аннотация: В данной статье анализируются географические основы географических и экологических проблем, происходящих в Зарафшанском национальном природном парке под воздействием природных и антропогенных факторов.

Ключевые слова: ООПТ Республики Узбекистан, национальный природный парк, биоразнообразие, заповедник, экотуризм, Красная книга, тугайные леса, уровень воды в реке, бухарские олени, Всемирный фонд дикой природы WWF, рациональное использование природных ресурсов.

Abstract: This article analyzes the geographical foundations of geographic and ecological problems occurring in the Zarafshan National Nature Park under the influence of natural and anthropogenic factors.

Keywords: Protected natural areas of the Republic of Uzbekistan, national nature park, biodiversity, nature reserve, ecotourism, Red Book,

tugai forests, river water level, Bukhara deer, World Wildlife Fund WWF, rational use of natural resources.

O'zbekistonning raqamli va yashil iqtisodiyotga o'tish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishiga moslashuv, atrof-muhit monitoringi tizimini kuchaytirish, aholi salomatligi va ekologik xafsizlikni ta'minlash asosiy maqsadimizdir.

O'zbekistonning eng noyob lanshaftlaridan biri to'qay yoki qayir o'rmonlari hisoblanadi. To'qaylar O'zbekistonning eng yirik daryolari qirg'oqlarida joylashgan tozza havo bilan ta'minlovchidir.

Qayir o'rmonlari daryoni ifloslanishdan saqlab, suvning tozalligini ta'minlaydi hamda tabiatda namlik almashinuvida asosiy rol o'ynaydi. Yaqin vaqtilargacha to'qaylar katta maydonlarni egallab kelgan, lekin turli sabablarga ko'ra ularning maydoni taxminan 10 foizga kamayib ketdi.

To'qay o'rmonlari Butunjaxon yovvoyiy tabiat fondi (WWF) tomonidan jiddiy muxofazaga muxtoj ekologik xududlarning «GLOBAL-200» ro'yhatiga kiritilgan. Samarqand viloyatining Jomboy va Bulung'ur tumanlari hududida joylashgan, umumiy er maydoni 2426.2 gektar bo'lgan Zarafshon milliy tabiat bog'ida bugungi kunda ba'zi jiddiy ekologik muammolar vujudga kelmoqda. Jumladan, daryo suv sathining yildan yilga pasayishi, to'qayzorlar maydoning qisqarib borishi, daryo o'zanidan

noruda foydali qazilma boyliklarining qazib olinishi, ichki buloq suvlarining noqonuniy foydalanish va boshqalar.

Bugungi kunda Zarafshon milliy tabiat bog'ida 300 ga yaqin o'simlik turlari o'sadi, shulardan 10 ga yaqini "O'zbekiston Qizil kitobi"ga kiritilgan. Milliy tabiat bog'ida baliqlarning 18 turi, suvda va quriqlikda yashovchilarning 2 tyri, sudralib yuruvchilarning 10 turi, qushlarning 218 turi, sut emizuvchilarning 26 turi mavjud. Bu hayvonlarning ham 10 ga yaqin turlari "O'zbekiston Qizil kitobi"ga kiritilgan. Milliy bog'dagi Buxoro bug'usi (xonguli) Markaziy Osiyo uchun endemik hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, u faqat Markaziy Osiyoda yashaydi va boshqa xech qayirda topilmaydi. Buxoro bug'ulari O'zbekiston, Tojikiston, Qozoqiston, Turkmaniston va Afg'onistonda uchraydi. Xonguli nisbatan yaqin vaqtlarda to'qay o'rmonlarda keng tarqalgan edi, endilikda noyob hayvonlar qatoriga kiradi. Buxoro bug'ulari Xalqaro qizil ro'yhatga va tabiatni muxofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiyaga kiritilgan. Zarafshon milliy tabiat bog'i Bulung'ur hududi qo'shni Tojikiston Respublikasining Panjakent tumani bilan chegara hududda Buxoro bug'usi (xonguli) o'tib qaytishi uchun (hayvonlar migratsiyasi) 4-ta koridor ochib qo'yilgan, bu turlar yangilanishiga olib keladi. Hozirgi kunda Zarafshon milliy tabiat bog'idagi ochiq muhitda 100 dan ziyot Buxoro bug'ulari yashamoqda. Bog'ning 6,5 gektar o'ralgan joyda (valerada) ularning 40 yaqini alohida parvarish qilinmoqda.

Dastlab 1948 yilda o'rmon zo'jaligi (Лейсной хозяйство), 1975 yilda qo'riqhona sifatida tashkil etilib, 2018 yilda Zarafshon milliy tabiat bog'iga aylantirilgan, ushbu hudud bugungi davrga kelib yashil taraqqiyotning yangi talablariga moslashish va yanada takomillashish bosqichida turibdi. Bog' hududining suv bilan ta'minlanishi Zarafshon

daryosining suv sathiga bog'liqdir. Daryoda suv qancha to'lib oqsa, milliy bog' fauna va florasiga shuncha ijobiy ta'sir etadi. Dariyo sathi qancha yaqin bo'lsa, yir osti suvi ko'tarilib dov-daraxt va o'simlik dunyosining yaxshi rivojlanishiga juda katta ta'siri bor.

2019 yilda e'lon qilingan tadqiqotlarga ko'ra, inson yashil makonlarda 20-30 daqiqa vaqt o'tkazish kortizol (stress garmoni) darajasini o'rtacha 21% ga kamaytiradi.

Daraxtlar va tabiiy yashil makonlari ko'p hududlarda yashovchilarda depressiya va bezovtalik kasalliklari 25-30% kamroq uchraydi. Bu natija jamoaviy sog'liq statistikasiga asoalangan holda ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil hududlarda o'ynash bolalar e'tibirini kuchaytiradi va autizm spektiridagi bolalarga ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantiradi. Xitoyda yashil makonda muntazam tashrif bolalarda ijtimoiy va hissiy yahshilanishlarga sabab bo'lgani aniqlangan.

AQShda o'tkazilgan tadqiqotda tuman tizimlarida daraxt qoplamalari 10%ga ko'p bo'lgan hududlarda autizm tarqalish ehtimoli 10-19 %ga pasaygani bunga yaqqol misoldir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yashil makon» umimilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohatlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida 90-sonli Farmoni qabul qilingangan.

Ushbu Farmonni ijrosini amalda ta'minlash maqsadida quydagi ishlarni amalga oshirishni taklif va tavsiy kilamiz. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya atrof-muxitni muxofaza qilish va iqlim o'zgarishlari vazirligi Muxofaza etiladigan tabiiy xududlar Departamenti tasarrufidagi Zarafshon milliy tabiat bogi nomi bilan ataluvchi davlat tashkiloti nomiga moc bo'lishi lozim, lekin akcincha bu xududlarning

4-5-6-7-chi bo'limlaridaida eski o'rmon xo'jaliklari tizmidan saqlanib kelinayotgan tomorqachilar (agarodchilar) tushunchasi afsuski saqlanib qolmoqda. Bu xududda Vazirlar Maxkamasining №442 sonli 10.08.2022 yildagi Qarori buyicha bajariladigan vazifalar, topshiriqlar bajarilmagan va eski tizimda tomorqachilar bilan noqonuniy ishlar olib borilmoqda to'liq qishloq xo'jaligi 4-5-6-7 bo'limlar xududidagi jami yr maydoni 1000 gektarga yaqin bo'lib, ushbu yirlarning ma'lum bir qismini tomorqa (agarod) sifatida chegara xududidagi ayrim fuqorolar noqonuniy, qo'lida hech-qanday xujjatsiz bog' raxbariyati bilan o'zoro kelishib dehqonchilik maqsadida foydalanib 100 lab chorva mollarini o'tlatib kelmoqda kelmoqda. Muxtaram Prezidentimizning, Vazirlar Maxkamasining Farmon va qarorlarini amalga oshirish maqsadida bu yrlarda iqlimga moslashuvchan tajriybadan o'tgan masalan (tol, jiyda, O'zbekiston Qizil Kitobiga kiritilgan chakanda (ablipexa) ekish mumkin. Yoki iqtisodiy moliyaviy mablag'ga taqaladigan bo'lsa, bog' xodimlari, nazoratchilar astoydil, vijdonan ushbu xududlarni kamida 3-yil antropogen omillar ta'siridan (noqonuniy kirib bog' balansidagi yrlarga ekinlar ekib foydalanish, chorva mollarini o'tlatish, dov-daraxtlarni kesish va boshqa qonun buzilish xolatlarini) qattiq tartibda nazoratni kuchaytirib amalga oshirilsa, milliy bog' o'z-o'zidan yashillikga burkanib fauna-flora 30-40 yil oldingi xolatiga qaytarishning birdan-bir mammoga echim yo'li mana shulardir. Ushbu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki «Milliy» so'zining ma'nosi juda keng tushunchadir. Misol uchun Milliy Unversitet, Milliy kutubhona, Milliy teatr, Milliy boyligimiz va boshqalar, ushbu so'zni qo'llashning alohida ma'nosi bordir. Shundan kelib chiqib Milliy boyligimiz bo'lgan bog'imizni asrab avaylash, ertangi

avlodlarga hech bo'lmaganda bor holich etkazish biz uchun ham farz, ham qarzdir. Misol uchun bir dona 10-15 yillik darah bir yilda 1000 kilogram atrofida kislarod ishlab chiqaradi. Ushbu Zarafshon Milliy tabiat bog'i nafaqat Samarqand viloyatining ekologiyasini, obi-havosini iqlimini, yashilligini, namligini va boshqa ijobiy ta'siri balki O'zbekiston Respublikasida ham alohida ahamiyatga ega ekanligi ilmiy monitoring natijalariga ko'ra aniqlangan haqiqatdir. Tajriba, Ilmiy natjalardan shu haqiqat ma'lumki, ohirgi 5 yilda monitoring natijasida bog'da bir-nech yuzlab katta yoshli daraxtlar qurish kuzatilmoqda, Ekologik vaziyat bu bir xududning muammosi bo'lmagan. Misol uchun buni uzoqqa bormaylik Orol dengizi misolida ham tajribadada ham ko'rdik. O'tgan asrning 1960-1970 chi yillarida Orol dengizi holat qanday edi, hozirgi kunga kelib ahvol qanchalik o'zgargan. Shuni yana bir bor ta'kidlashimiz kerakki Zarafshon Milliy tabiat bog'imizni bugun asrab kolmasak, ertangi avlodlar bu bog' haqida kitoblarda o'qib, rasmini korib qolmaydi deb hech kim kafolat bera olmaydi. Zarafshon Milliy tabiat bog'ida xar yilli 4-5-6-7- bo'lim hududlarida ayrim mahalliy aholi tomonidan o'simlik dunyosini nobud qilib, o'z manfatlari yo'lida ayrim shaxslar yangi yirlar ochib dehqonchilik qilib kelmoqda, ming afsuski ushbu holatga bog' rahbariyat bir-necha o'n yillardan buyon ko'z yumib kelmoqda. Misol uchun mutahasislarning ta'kidlashicha, Jing'il tabiiy muhitda shamol va suv eroziyasining oldini olish, tuproqni mustahkamlash hamda mahalliy ekotizm barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mahalliy ekologlar va tabiat himoyachilari bu masalada zudlik bilan e'tibor qaratish, muhofaza hududlardagi noqonuniy egallash o'simliklarni yo'q qilish, payhon qilish holatlariga chek qo'yish zarurligi asosiy

muammolardan biridir. Jing'ilning yo'q bo'lishi nafaqat o'simlik turlarining kamayishiga, balki Zarafshon milliy tabiat bog'i hududidagi biologik xilma-xillikning izdan chiqishiga ham olib kelishi mumkin. Bu salbiy holat tomorqalar (ogorod) ayrim shaxslarga daromad keltirayotgandir, ammo tabiatga, ekologiyaga, xalqaro

Kanvensiyaga muvofiq Buxorobug'ularining migratsiya yo'lini to'sib qo'yishiga eng katta sabab bo'lmoqda. Shu sabab, ma'sullar hamda jamoatchilikning hamkorligida harakat qilishi bu noyob o'simlikni saqlab qolish muhim hisoblanadi. Shuning uchun Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyayevning farmonlari asosida izchil islohatlarni zudlik bilan amalga oshirishimiz zarur deb hisoblaymiz.

Zarafshon milliy tabiat bog'idagi chegara hududida yashovchi aholi o'rta va katta yoshdagilar 25-30 yil oldin tevarak-atrofdagi holat avval kanaqa edi-yu hozir qanaqa ekanini qiyosan yaxshi biladilar. Hozirgi yosh avlod vakillari buni ota-bobolaridan so'rab bilib olishlari mumkin. Yoki diqqat bilan tabiatga razm solib, o'zlari ham oz bo'lsada, muayyan ta'ssurot hosil qila oladi. Chunki bugungi hayotimiz shiddati tabiiy muhitni, ekologiyamiz juda tez o'zgartirayapti. Masalan dov-darahtlarni kesilib ketgani faqat yozning jazirasida emas, balki o'sha makondagi manzara ko'rimsiz bo'lib qolganidan ham darrov bilinadi. Yoki bu tabiatdan oldingi holatini eslaganida, balki o'sha joydan fayzu baraka ketganidek hissiyot uygonganida ham birdan bilinadi.

Ha shoir Muxammad Zaxiriy Samarqandiy uzoq XII asrda bejiz «Daraxt qanchalik baquvvat, tomirlari qanchalik kuchli bo'lmasin, uni bir-ikki soatda qo'porib tashlash mumkin, lekin u hosil berishi uchun yillar kerak» demagan edi.

Misol uchun ona tabiatdan biron narsa olinganda, uning o'rnini to'ldirilmasa, hozirgi istiloh bilan aytganda, kompensatsiya choralari

ko'rilmasa, oqibati ayanchli va qayg'uli bo'lishini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Birgina Orol fojiasini olaylik, bir mahallar paxta yakkaxokimligi tufayli daryolar suvi to'silib, cho'llarga burilganida, hozirgi ekologik bo'hronlarga o'rin yo'q edi. Markaziy Osiyo iqlimini barqarorlashtirib qishu-yozni nisbatan mo'tadil qilib, yog'in-sochinini bir miyorda ushlab turgan dengiz o'z sohillaridan yuzlab kilometr nariga «qochib ketdi». Zararli kimyoviy moddalar bilan to'yingan, tuz bilan qoplangan bu qumliklarda kema qabristonlari paydo bo'ldi, aholi orasida turli kasalliklar ko'paydi. Ayniqsa, ado qilib bo'lmaydi.

Mashhur geograf Armand L'vovich (1905-1976) «Tabiatga mehmon bo'lib borsangiz, odamlarninkiga mehmonga borganda qilish odobsizlik bo'lgan hech bir ishga qo'l ura olmang» deganda, tabiatning tuzumini buzmaslik, uni xo'rlamaslik va xo'rlamaslik kerakligini nazarda tutgan.

Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha 2050-yilgacha bo'lgan davr uchun qabul qilingan yangi Strategik rejada, duniyo miqiyosida METHlar tizimini kengaytirish va yaxlitligini ta'minlash bilan bogliq bir qator yangi vazifalar belgilab berilgan. Hozirgi kundagi mavjud METHlar tizimi hududiy va funksional jihatdan tarqoq bo'lgan turli obyekt va majmualardan iborat bo'lib, bunday shakildagi global ekologik tarmoq istiqbolida belgilangan vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega emasligi bilan karakterlanmoqda. Shu bois, BXX ni saqlab qolish va undan barqaror foydalanishni ta'minlashda muhim bo'lgan hamda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlariga to'liq mos keluvchi METHlar tizimining optimal shakli va darajasini aniqlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu masalada, A.A.Tishkov ta'kidlaganidek, «qo'shni mamlakatlarning bu boradagi ilgor

tajribalariga hamda tabiatni muhofaza qilishda shakillangan hududiy an'analarga asoslanib, maskur mamolarni qanday hal qilishni, yani ularning qaysi birida ytarli darajada nazariy va metodik arsenal mavjudligini geografiya o'ylab ko'rishi kerak».

Ilmiy masalalar va me'oriy-huquqiy hujjatlarda METHlar tushunchasi, mohiyati va tizimining tarkibiy tuzilishi bo'yicha berilgan tavsiflarda o'hshashliklar bilan bir qatorda, o'ziga xos farqlar ham kuzatiladi. Bu farqlar METHlarni toifalariga yoki guruhlariga ajratishda foydalanilgan mezonlar, tamoyillar hamda milliy qonunchilikda ustivor bo'lgan yondashuvlar bilan belgilanadi. METHlar tizimini nomlanishi, kattaligi, tarkibi, tuzilishi va tashkil etilishi bo'yicha amaldagi yondashuvlarni ham mukammal deb bo'lmaydi. Shu bois, bu boradagi tadqiqotlarda METHlar bilan bogliq tushinchalarning ilmiy izohini aniqlash hamda ularning tizimini tashkil etishda metodologik asos bo'la oladigan nazariy yondashuv va ustivor jihatlarini belgilab olish muhim ahamiyatga egadir. METHlar bilan bog'liq tushunchalar va ularning mazmunini muayan bir shakilga keltirish bo'yicha dastlabki urinishlar Londonda flora va faunani saqlab qolish bo'yicha 1933-yilda o'tkazilgan xalqaro konferensiyada amalga oshirilgan. Unda barcha qo'riqlanadigan hududlarni atashda «Protected areas» terminidan foydalanish taklif etilgan. Bu termin quruqlik va suv kengliklarida noyob biologik turlarning muhofazasini ta'minlash uchun ajratilgan yir uchastkalari sifatida ifodalangan bo'lib, ilmiy adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda «muhofaza etiladigan tabiiy hudud» sifatida izohlanib kelinmoqda.

Tarihda METH bilan bog'liq ko'plab tushunchalarni shakillanishi ko'chmanchi turk-mangol xalqlarining madaniyati bilan bogliqligi Sharq

madaniyati va tarikhni o'rgangan V.V.Bartold, B.Y.Vladimirsov, M.Y.Masson, A.L.Troiskaya kabi mashhur tadqiqotchilar tomonidan asoslab berilgan. Turk-mangol xalqlarining madaniyatida keng qo'llanilib kelingan «qo'riq»lar, hozirgi kunda ilmiy adabiyotlar va me'oriy-huquqiy xujjatlarda keng iste'molda bo'lgan «qo'riqxona» tushunchasini shakillanishiga asos bo'lgan. «Qo'riq»lar ko'chmanchi xalqlarning tabiiy-iqlimiy sharoiti murakkab va tabiatdagi muvozanat juda «nozik» bo'lgan aniq mintaqada ekologik muvozanatni saqlab turishga erishganlar.

Xalqaro darajada METHlar tizimining Taraqiyoti WCPA, IUCN va WWF kabi tashkilotlar tomonidan movofiqlashtirib borilmoqda. WCPA tomonidan berilgan tarifga ko'ra, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa samarali vositalar orqali maxsus muhofaza qilish rejimiga ega bo'lgan quruqlik yoki dengiz qisimlarida BXXni qo'llab quvatlash, tabiiy va madaniy obyektlarni saqlashdga mo'ljallangan hududlar METH hisoblanadi. M.S.Stishov va N.Dadli (2018) tomonidan keltirilgan manbalarda IUCNning quyidagi ta'rifi keltirilgan. METH-«bu tabiiy majmualar va obyektlarning madaniy ahamiyatiga va ekotizim xizmatlariga ega bo'lgan qisimlarini uzoq muddatli saqlanishini ta'minlash uchun davlat tomonidan belgilangan huquqiy va boshqa samarali vositalar orqali boshqariladigan geografik makon»dir.

2030-yilgacha o'rmon resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha maqsadli ko'rsadkichlar tasdiqlandi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilishi Vazirligi tomonidan Respublikaning yashillik darajasini yanada oshirish, o'rmonlarni ko'paytirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada samaradorlikni oshirish maqsadida 2025-yil 30-maydagi «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida hamda

o'rmonlarni boshqarish tizmida islohatlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'grisidagi 90-son Farmoniga muvofiq Ekologiya vazirligi tasarrufida O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish va er degradatsiyasining oldini olishyiliga muhim vazifalardan biridir.

Zarafshon milliy tabiat bogida Zarafshon qirgovulini yashash va ko'payishi uchun ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va shuning bilan birgalikda iqlim o'zgarishi, tabiiy boyliklar va suv resurslarining toboro taqchil bo'lib borayotgani ham barqaror rivojlanishga kuchli ta'sir etmoqda. Zarafshon daryosi sohillarida joylashgan to'qayzorlar yildan-yilga kamayib, inson xo'jalik faoliyati (tomorqa-ogorod) ta'siri keskin kuchayib bormoqda. «Zarafshon qirg'ovuli»-tabiatning boy merosi xisoblanadi. Zarafshon qirg'ovuli (*Phasianus colchicus zerafschanicus*)-O'zbekistonning noyob va o'troq parranda turi. Uning asosiy areali Zarafshon daryosi va Qashqadariyo vohasi bo'lib, Samarqand Buxoro, Navoiy va Qashqadariyo viloyatlarida uchraydi. O'zbekistondan tashqari Tojikistonda ham tarqalgan. Asosiy kelgusi ishlarimiz Zarafshon daryosi o'zani va qirg'oq bo'yi zonasida joylashgan realikt to'qayzorlar tabiiy majmuasi, noyob o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilishni yaxshilash, tabiat bog'i hududida qonunchilik talablari asosida zonalashtirishning o'tkazilish, rekreatsiya va xo'jalik maqsadlarida foydalaniladigan zonalari hududida tabiiy majmua va ob'ektlarga salbiy ta'sir etmaydigan xo'jalik yuritish shakillarini amalga oshirish, xududning ta'biy ob'ekti va majmualariga inson xo'jalik faoliyatining salbiy ta'sirini kamaytirishga erishish, Zarafshon daryosi o'zanidagi noqonuniy xo'jalik faoliyatiga barham berish, yo'qolib ketish xavf ostida bo'lgan noyob

hayvonlar va qushlarni hamda o'simlik turlarni, u eirlardagi lanshaftlarni muhofaza qilishni yangi darajaga olib chiqish va chora tadbirlar davomida . «Zarafshon» milliy tabiat bog'i faoliyati misolida inson va tabiat uyg'unligini ta'minlashga erishish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga «Zarafshon» milliy tabiat bog'ida muhofaza ishlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, jumladan, kuzatish kameralari va dronlardan foydalanish loyihasi ishlab chiqarish va amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ishlarni amalga oshirishda bog ilmiy xodimlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda ta'biy ob'ektlar monitoringi yuritilishi va ilmiy tadqiqot ishlarining tashkil etilishi, milliy tabiat bog'ining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash choralari ko'rilishi va boshqa vazifalarni amalga oshirishi lozim. O'zbekiston Respublikasi ekologiya atrof-muxitni muxofaza qilish vazirligi, Fanlar akademiyasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining Qizil Kitobiga va Tabiatni muhofaza qilish xalqaro itfoqning (TMXI) Qizil ro'yhatiga yo'q bo'lib ketayotgan O'zbekiston Respublikasi lokal tarqalgan kenja tur maqomi bilan kiritilgan Buxoro bug'ulari uchun yashash joylarini yaxlit saqlash, daryoda suv satxinining pasayishi natijasida qirg'oqlardagi to'qayzorlarga bo'layotgan salbiy ta'sirning oldini olish maqsadida milliy tabiat bog'I xududini kengaytirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilishi lozimdir.

Qaror ijrosining amalga oshirish natijasida «Zarafshon» milliy tabiat bog'i xududida qonunchilik talablariga rioya etilishi ta'minlanadi, ekotarg'ibot ishlari kuchaytiriladi, tabiiy ob'ektlar monitoringi va ilmiy-tadqiqotlar yuritilishi ta'minlanib, mamlakatimizning noyob to'qayzor o'rmonlari va u erdagi noyob

hayvonlar yashash muxiti
yahshilanaadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Ravshanov Zarafshon vodiysining to'qay lanshaftlari va ularni muhofaza qilish. «O'zbekistonning noyob lanshaftlari» ilmiy to'plam.Samarqand.1993 y.
2. L.A.Alibekov,S.A.Nishonov Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan rasional foydalanish.Toshkent., «O'qituvchi».1983.
3. A.A.Abulqosimov O'rta Osiyoning to'qay lanshaftlari «»va ularning xususiyatlari. «O'zbekistonning noyob lanshaftlari»,ilmiy to'plam.Samarqand.1993 y.
4. L.A.Alibekov Inson va tabiat,darslik Samarqand,SamDU nashriyoti.2020-yil 400 bet.
5. N.A. Gvozdes'kiy Osnovni'e problemi' fizicheskoy geografii.M.,Vi'shaya shkola.1979.
6. Sh.S.Zokirov Kichik hududlar tabiiy geografiyasi. T.,Unversitet.1999.
7. Zokirov Sh.Antropogen va amaliy lanshafshunoslik.Toshkent.1998.
8. F.N.Mil'kov Fizicheskaya geografiya: sovremennoe sostoyanie,zaekonomerniosti,problemi '.Voronej.1981.
9. A.M.Trofimov.,Shari'gin M.D.Obshaya geografiya:vaproshi' teorii I metotologii.-Permi',2007.
10. A.T.Azimova,B.B.Xaskin Ekologiya-M:,1998,-455s.
11. P.Baratov Tabiatni muhafaza qilish.Toshkent,O'qtuvchi,1991.
12. U.R.Beknazarov,Yu.BNovikov.Oxrana prirodu T. «O'qituvchi»,1995.
13. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha ramkaviy konvensiyasi bo'yicha O'zbekiston

Respublikasining Birinchi Milliy axboroti.Toshkent.,1999.

14. A.A.Gorelov Ekologiya.-M.: «S'yntr»,1998
15. N.Yu.Gladkiy.,S.B.Lavrov.Global'naya geografiya.-M.:Drafa,2002.
16. Danilov.J.Markovich Sos'al'naya ekologiya.M.: «Prosvehenie»,1991.
17. T.A.Damina. Ekologiya«S'yntr»,prirodopol'zovanie «S'yntr»,okrujayuiaya sreda M.,Aspekt Press.1996.-143s.
18. I.A.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sagasida:xavsizlikka tahtid,barqarorlik shartlari va taraqiyot kafolatlari.T.:O'zbekiston.1997.
19. Krasnaya Kniga O'zbekiskoy SSR.Tom I.Toshkent,. «Fan»,1983.
20. Krasnaya Kniga O'zbekiskoy SSR.Tom II.Toshkent,. «Fan»,1984.
21. Notsanalniy doklad.O sostoyanii okrujayushiy prirodnoy sredi i ispolzavanii prirodniy resursov v Respubliki O'zbekistan (2001g.).T.CHinor ENK,-2002.
22. A.Nigmatov.Ekologiya nima?-T,2002.
23. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabr qonuni// O'zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent., «Adolat»,1993.
24. X.Tursunov.Ekologiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish. Toshkent, «O'zbekiston»,1997.
25. S.A.To'xtaev.Ekologiya. Toshkent., «O'qituvchi»,2001.-144bet.
26. R.T.Pirnazarov,T.S.Sobirov (2002). Iqlim o'zgarishi sharoitida suvga bo'lgan talabchanlikning ortishi va uning echimlari.Academic research in educationalsciences,3(5), 404-408.